

**Assalomu alaykum, aziz va dilbar ayollarimiz, lobar opa-singillarimiz!**

Avvalo, sizlarni, sizlarning timsolingizda mamlakatimizdagи barcha onaxonlar, opa-singillar, lobar qizlarimizni ezgulik va go'zallik bayrami 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan shaxsan o'zim qolaversa, vazirligimiz jamoasi nomidan chin qalbdan muborakbod etaman.

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki sizlar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir.

Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rinni va mavqega ega. Ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarda samarali mehnat qilib kelishmoqda.

Xususan, mamlakatimiz transport sohasida ham siz kabi yuzlab oqila ayollarimiz bugun biz bilan baravar mehnat qilishmoqda. Soha rivoji, yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shishmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligini ta'minlash davlat siyosati darajasida ekanligi bilan bugun har qancha faxrlansak arziydi.

Zero, aynan ayolga hurmat va ehtirom ko'rsatish, jamiyatda ularning munosib o'rinni egallashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, bu orqali esa oilalar farovonligiga erishish muhtaram Prezidentimiz tomonidan yuritilayotgan ijtimoiy adolatga asoslangan siyosatning asosiy yo'nalishidir.

Transport tizimi shubhasiz mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biridir. Ushbu g'oyat mashaqqatli sinovlarga to'la sohada o'z kasbingizdan baraka topib, ham ish, ham oilaga ulgurayotganingizning o'zi ulug' jasorat.

Biz bugun o'zining fidokorona mehnati, erishgan ulkan yutuqlari, davlat va jamoat ishlaridagi faol ishtiroki, ibratlari fazilatlari bilan xalqimiz o'rtasida obro'-e'tibor qozongan yuzlab opa-singillarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Xususan, 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida Prezidentimizning tegishli farmoni bilan «O'zaeronavigatsiya markazi» davlat unitar korxonasining Havodagi harakatni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimi Toshkent markazi hududiy bo'linmasi dispetcheri Vasileva Tatyana

Aleksandrovna «**Do'stlik**» ordeni bilan Samarqand viloyati transport boshqarmasining tramvay liniyalarini ekspluatatsiya qilish direksiysi tramvay haydovchisi Azimova Gulmira Djaxanovna, «Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi» aksiyadorlik jamiyatining ko'priki kran mashinisti Sulaymonova Gulchexra Toxir qizi hamda Baliqchi tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonasi ishchisi Mexmonova Ro'zixon Abduvalievna «**Shuhrat**» medali bilan taqdirlandi.

Qolaversa, Toshkent davlat transport universiteti Transport iqtisodiyoti kafedrasi mudiri Yuldasheva Saodat Arislanovna “**Mo'tabar ayol**” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Fursatdan foydalanib, ushbu mukofot sohibalarini transport sohasi vakillari, vazirligimiz jamoasi hamda o'z nomimdan chin qalbdan muborakbod etaman.

### **Hurmatli opa-singillar!**

So'zimning oxirida barchangizni Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Barchangizga oilaviy xotirjamlik, xonadonlaringizga tinchlik, fayzu baraka tilayman. Doimo xalqimiz, Vatanimizning yuksak mehri va ardog'ida bo'lish hammangizga nasib etsin!

O'zbekiston Respublikasi Transport vaziri Mahkamov Ilhom Rustamovich

*2023-yil 7-mart*